

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

 Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

Jild 3, Son 6/s

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ S/6 (3)-2023***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа оқтори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаси хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

---

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-туманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиги.

#### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

#### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## **МУНДАРИЖА**

### **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

<i>Мамаражабов Бобир Нормүмин ўғли</i> САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК .....	8-17
<i>Хайдаров Абдулҳоди Ахмадали ўғли</i> XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ФАРҒОНА ВИЛОЯТИДА БОҒДОРЧИЛИК ВА ТОМОРҶАЧИЛИКДАГИ ЎЗГАРИШЛАР .....	18-22
<i>Назаров Азизбек Ёқубжонович</i> ТУРКИСТОН ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРЛИГИДА ИЛМИЙ ЖАМИЯТЛАР: ТАРИХШУНОСЛИК ТАҲЛИЛИ .....	23-31
<i>Abdulloyev Jamshed Izzatulloyevich</i> MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA CHEGARA VA SUV MUAMMOLARINING VUJUDGA KELISH ASPEKTLARI VA BUGUNGI RIVOJLANISH BOSQICHI .....	32-36
<i>Пасилов Баҳодир Абдуллаевич</i> ЎЗБЕКИСТОН ССРДА СОВЕТ ИҚТИСОДИЁТИ АСОСЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНинг АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ (1917-1937 йй.) .....	37-41
<i>Ismailov G'afurjon Xasanovich</i> TURKIYADAGI O'ZBEK TEKKE (TAKIYA)LARIDAN BIRI "SULTONTEPA TEKKESI" MUSOFIRLAR UCHUN TUTGAN O'RNI .....	42-46
<i>Raxmatulloyev Murodjon Xikmatulloyevich</i> BUXORO VILOYATIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID ISLOHOTLAR .....	47-50
<i>Elmurodova Nilufar Baxtiyorovna</i> SHARQ VA G'ARB UYG'ONISH DAVRI MADANIYATI: QIYOSIY T AHLIL .....	51-55
<i>Нафиддинова Хосият Равшановна</i> БУХОРО ВОҲАСИ АҲОЛИСИ ОИЛАВИЙ МАРОСИМЛАРИ ТАРИХИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР .....	56-60

### **08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

<i>Zhang Hongzhi, Wu Bo</i> RUMOR RESILIENCE: HOW BUSINESSES ECONOMICALLY RESPOND TO STOCHASTIC RUMOR SPREAD .....	61-66
<i>Ibrayimova Dilnoza Abdisheripovna</i> MIN TAQADA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ONLINE SAVDO MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	67-72
<i>Nayimov Shoxruh</i> PROBLEMS OF FORMATION AND MANAGEMENT OF COLLATERAL PORTFOLIO OF A COMMERCIAL BANK .....	73-79

*Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich*

ISSUES OF APPLICATION OF QUALITY MANAGEMENT IN THE SOCIO-ECONOMIC  
DEVELOPMENT OF ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS FOR THE PURPOSES OF THE  
DEVELOPMENT STRATEGY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ..... 80-88

*Rahmatullaev Bezhzod Rahmatullaevich*

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР  
МАСАЛАЛАРИ ..... 89-95

*Abdullayeva Zamira Muxtarovna*

МЕҲНАТ BOZORI TALABLARIGA OLIY TA'LIM XIZMATLARI MODELLARINI  
MOSLASHTIRISH ..... 96-102

*Imomov Xolmurod Norkulovich, Sharipov Tulkin Saidakhmedovich*

ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШИШИ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ  
ШЕРИКЧИЛИГИНИНГ ШАКЛЛАРИ, МОДЕЛЛАРИ ВА МЕХАНИЗМЛАРИ ..... 103-114

*Erqashov Akmadzhon Mahmudjon yfli*

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ РИСКЛАРНИ АНИҚЛАШ ВА  
БОШҚАРИШ МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 115-122

## 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

*Imomova Nozimaxon Avazxonovna*

JAMIyat FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS IJTIMOIY-FALSAFIY  
XUSUSIYATLARI ..... 123-129

*Qodirov Davronbek Hoshimovich*

ABULQOSIM QUSHAYRIY VA UNING ILMIY FAOLIYATI ..... 130-133

*Jabborova Saodat Sattorovna*

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY SALOHIYATNI YUKSALTIRISHDA QO'SHGAN  
HISSASI ..... 134-142

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Tuxtasinova Mahliyoxon Shavkatjon qizi*

L.Z.BUDAGOV LUG'ATIDA ESKI O'ZBEKCHA SO'ZLARNING EKVIVALENTLAR YORDAMIDA  
IZOHLANISHI ..... 143-149

*Narmuratov Zayniddin Radjabovich*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TA'LIM VA ILM MAZMUNLI FRAZEMALARDА EKVIVALENTLIK  
MASALASI ..... 150-154

*Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna*

UZBEKCORPUS.UZ PLATORMASIDA MORFOLOGIK TAHLIL INTERFEYSI VA DASTURIY  
TA'MINOTI ..... 155-160

*Mirzayeva Yelena Sa'dullaevna*

O'ZBEK MENTALITETI VA AXBOROTNI IDROK ETISH ..... 161-166

*Alimjanova Shohsanam Azamat qizi*

INGLIZ TILIDAGI KO'P MA'NOLI IBORALARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH

USULLARI .....	167-171
<i>Iskandarova Shamsiyabonu Ulug'jonovna</i> BADIY ADABIYOTDA MUALLIF VA TARIXIY QAHRAMON O'RTASIDAGI G'OYAVIY BOG'LIQLIK MASALASI (Laila Lalaming "Mavrning hisoboti" asari tahlili asosida) .....	172-176
<i>Hamroqulova Marjona Nabijon qizi</i> “МАНБУБ УЛ-QULUB” ASARIDAGI FRAZEMALAR LARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI .....	177-181

**12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Zulfiqarov Sherzod Xurramovich</i> ҚОНУНЧИЛИК ПАЛАТАСИ ҚЎМИТА ВА КОМИССИЯЛАРИДА ДЕПУТАТЛАР FAOLIYТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ .....	182-191
<i>Talibaev Umidjon Shergaziyevich</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ К АДМИНИСТРАТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРАВОНАРУШЕНИЯ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИИ. ....	192-199

**13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Iminakhunova Iroda Huseynovna</i> THE MOST IMPORTANT REQUIREMENTS THAT ENSURE EFFECTIVE PEDAGOGICAL CONTROL OF STUDENTS' SELF-EDUCATIONAL ACTIVITIES .....	200-206
<i>Usmanaliev Khusniddin</i> INTERCULTURAL COMPETENCE IN THE TEACHING PROCESSOF A FOREIGN LANGUAGE .....	207-219
<i>Madaminov Uktam Ataxanovich</i> ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA FANLARNI MOBIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI .....	220-224
<i>Yuldasheva Dilfuza Qodirovna</i> TURIZM YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILIDA SOHAVIY LEKSIKANI O'RGATISH USULLARI .....	225-229
<i>Tohirova Shohsanam Yunusovna</i> THE IMPORTANCE OF CASE TECHNOLOGY IN PRACTICAL ENGLISH CLASSES IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS .....	230-236
<i>Nuriddinova Muyassar Muhiddinovna</i> ORGANIZING PHYSICAL EDUCATIONAL EVENTS WITH PRESCHOOL CHILDREN .....	237-242
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISHDA INNOVATION TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI .....	243-247
<i>Sheraliyev Odiljon</i> TALABALARNING DIGITAL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	248-254

*10.00.00 – Филология фанлари*

**Tuxtasinova Mahliyoxon Shavkatjon qizi**  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va  
adabiyoti universiteti, tayanch doktorant  
E-mail: [mahliyoshavkatjonovna@gmail.com](mailto:mahliyoshavkatjonovna@gmail.com)

**L.Z.BUDAGOV LUG'ATIDA ESKI O'ZBEKCHA SO'ZLARNING EKVIVALENTLAR  
YORDAMIDA IZOHLANISHI**

**Annotatsiya.** Maqolada ekvivalentlik tushunchasi tarixi bo'yicha ma'lumotlar, eski o'zbek tili (chig'atoy)ga oid leksemalar ekvivalent usuli yordamida izohlanishi keltirilgan. Bundan tashqari har bir tahlil etilayotgan leksema yasalmalari aks ettirilgan hamda tahlillar illyustrativ materiallar bilan boyitilgan.

**Kalit so'zlar:** ekvivalentlik, uluy, talqan, eski o'zbek tili, yüylämaq, pot qarsot, bayčal.

---

**Tukhtasinova Mahliyokhan Shavkatjon kizi**  
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature  
named after Alisher Navoi, PhD student

**EXPLANATION OF OLD UZBEK WORDS USING EQUIVALENTS IN THE DICTIONARY  
OF L. Z. BUDAGOV**

**Abstract.** The article provides information on the history of the concept of equivalence, the interpretation of lexemes related to the old Uzbek language (djagatai) using the equivalent method. In addition, given the formations of each lexeme under analysis and the analysis is enriched with illustrative materials.

**Key words:** ekvivalentlik, uluy, talqan, eski o'zbek tili, yüylämaq, pot qarsot, bayčal.

---

**Тухтасинова Махлиёхан Шавкатжон кызи**  
Ташкентский государственный университет узбекского языка  
и литературы имени Алишера Навои, аспирант

**ОБЪЯСНЕНИЕ СТАРОУЗБЕКСКИХ СЛОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЭКВИВАЛЕНТОВ  
В СЛОВАРЕ Л. З. БУДАГОВА**

**Аннотация.** В статье представлены сведения об истории возникновения понятия эквивалентности, интерпретации лексем, относящихся к староузбекскому языку (джагатай), с использованием эквивалентного метода. Кроме того, даны образования каждой анализируемой лексемы, и анализ обогащен иллюстративным материалом.

**Ключевые слова:** эквивалентлик, улуу, талкан, эски узбек тили, йўламак, горшок карсот, байчал.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6/SY2023N21>

**Kirish.** Tildagi mavjud har bir so'z hayot talabiga muvofiq tarzda turli yo'llar bilan hosil bo'ladi. So'z til boyligining asosiy birligidir. Til orqali fikr bildirishga kirishilar ekan, so'z material vazifasini bajaradi. Yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, so'z o'z ma'nosi bilan berilayotgan fikr uchun asos, poydevor hisoblanadi. So'zning yuzaga kelishida esa birlamchi o'rinda ma'no turadi. Shuning uchun ham so'z ma'nosini tadqiq etish qadim-qadimlarga borib taqaladi [8]. Binobarin, leksemalarni diaxron jihatdan o'rganish tilning rivojlanish bosqichlarini, uni yaratuvchi xalq tarixini yoritishda alohida e'tiborga molik. Shu bois ham tarixiy jarayonlar so'z ma'nolarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi.

So'zlarning yangi ma'nolar bilan boyib borishi qonuniy jarayon hisoblanadi. Lingvistik hodisalar ustidagi kuzatishlarimiz so'zlarning yangi ma'no bilan boyishi til rivojida katta mavqeni egallovchi asosiy xususiyat ekanini isbotlaydi. Chunki leksemaga so'ng yuklangan ma'no tilda yangidan paydo bo'lgan mustaqil so'z kabi lug'at boyligiga ulkan hissa qo'shami, uning rivojlanishiga xizmat qiladi. Jumladan, bir leksema ma'nosining o'zgarishi, yangi ma'noda qo'llanishi, iste'moldan chiqishi, uning passivlanishi, faollashishi boshqa so'zlarga ta'sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, so'z ma'nosini tarixiy asosda tekshirib aniqlash yangi so'zlarning yuzaga kelish qonuniyatlarini ochib berishda ayniqsa ahamiyatlidir [9]. Demak, so'z ma'nosini o'rganish tilshunoslikning muhim masalalaridan bo'lib, u, bir tomonidan, leksemaning kelib chiqish mohiyatini yoritsa, ikkinchidan, diaxron aspektida tadqiq etish bilan bog'liqdir.

Zamonaviy tarjima nazariyasida tarjima qilingan matnning asl matnga mos kelishini bildiruvchi ekvivalentlik ob'ektiv lingvistik asosga ega va shuning uchun tarjimaga adabiy yondashuv bilan bog'liq bo'lgan atamaning mumkin bo'lgan talqinlarini chegaralash uchun uni ba'zan lingvistik ekvivalentlik deb ham atashadi. Tarjima ekvivalentligi tushunchasi tarjima natijasining asl nusxaga iloji boricha yaqinroq bo'lgan g'oyasini va bu natijaga erishish vositalari g'oyasini o'z ichiga oladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** “Ekvivalentlik” atamasi murakkab tarixga ega. U bir paytlar manba matn so'zlarini ma'nolari yig'indisining tarjima qilingan matn so'zlarini ma'nolari yig'indisiga mos kelishini bildirgan. Tarjima tarixida ekvivalentlikning turli tushunchalari rivojlangan. Ekvivalentlik tarjima fanidagi asosiy tushunchalardan biridir [2]. Ba'zi tadqiqotchilar “ekvivalentlik” atamasining paydo bo'lgan vaqtini XIX asr oxiri – XX asr boshlari deb hisoblashadi. XX asr 60-80-yillarida “ekvivalentlik” tushunchasidan faol foydalanish davri boshlandi [1].

V. N. Komissarov tarjimada ekvivalentlik darajalarining universal tipologiyasini ishlab chiqdi. U tomonidan taklif etilgan ekvivalentlik darajalari nazariyasi tillar orasidagi transformatsiyalar jarayoni sifatida tarjimaga lingvistik yondashuvni aks ettiradi.

Ekvivalentlikning eng mukammal nazariyasi rus olimi V. N. Komissarov tomonidan ishlab chiqilgan. U tarjima matnlari va asl nusxa o'rtasidagi umumiylilikning turli darajalarini ifodalovchi “ekvivalentlik” tushunchasining ko'p qirralilagini qayd etadi. Tarjimaning kommunikativ nazariyasini yaratuvchilardan biri A. D. Shvaytser ekvivalentlikni ikki o'lchovda (bir o'lchovli gorizontal va vertikal ierarxik) ko'rib chiqadi [3]. “Ekvivalentlik” tushunchasining shunga o'xshash talqini E. V. Breus tomonidan ekvivalentlik tushunchasining asosini tashkil etdi, u ekvivalentlikning ikki turini - funksional va madaniyatlararoni ajratadi [4].

**Muhokama.** Ekvivalent tarjima - asl nusxaning mazmunini ekvivalentlik darajalaridan birida takrorlaydigan tarjima. Tarjima ekvivalentligi - umumiylilikning mazmun; asl va tarjimaning semantik yaqinligi. Tarjima ekvivalentligi chegarasi tarjima paytida asl mazmunni saqlab

qolishning mumkin bo'lgan maksimal darajasidir, lekin har bir alohida tarjimada asl nusxaga turli darajada va turli yo'llar bilan semantik yaqinlik maksimal darajaga yaqinlashadi.

Atoqli ingliz tilshunosi J. Ketford tushunchasidagi ekvivalentlik u tarjimaning o'ziga xos ta'rifiga kiritgan asosiy tushunchaga aylandi. Tilshunos olim tarjima nazariyasining asosiy vazifasi tarjima ekvivalentligining mohiyatini va unga erishish shartlarini aniqlashdan iborat bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Empirik tarzda, olim ekvivalentlik rasmiy muvofiqlikni ham, qadriyatlar tengligini ham anglatmasligini aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Asosiy shart shundaki, asl nusxa va tarjima matnlari bir vaziyatda bir-birini almashtira oladi [3]. Bundan xulosa qilish mumkinki, boshqa ko'plab olimlar kabi, J. Ketford uchun ham ekvivalentlik asl va matn funksiya bo'yicha tarjima qilingan va buning uchun unga butun matn darajasida erishish kerak.

**Natija.** Lug'atshunoslikda ekvivalent yo'li bilan tarjima qilish usulining afzalligi shundaki, lug'atchi turkiy yoki chig'atoycha so'z ma'nosini ochishda uning boshqa bir tildagi muqobilini keltiradi. Masalan, chig'atoy (eski o'zbek tili) leksikoniga mansub дж. pometali **talqamaq** "olvoda qovurmoq" [5], تالقانكىز ، تالقانكىز talqangiz, talqungiz – "qovuring", **talqan** "qo'l bilan maydalab yeyiladigan yetilmagan va qovurilgan javdar" semalarini ifodalovchileksema umumturkiy tilda (lug'atda myp. pometa bilan qayd etilgan) تولمه بغداد tolma buyday, lug'atshunos leksemaning forsiy piş xurd ekvivalentini, qozonchada jo'xori uni, oltoychada un ma'nolarini keltirar ekan, qirg'izchada **talqon** fe'l sifatida talqandov "maydalangan, bo'laklarga bo'lingan" ma'nolarini ifodalaydi. Buni muallif keltirgan misolda ko'ramiz: سونك تالقانداب تاسтиابى بىكەك اوستاغان sonj talqandab tasdaydi bezgak ustayan – isitma odamni butunlay ezib tashlaydi; tahlilga tortilgan leksema ط تالقى talqimaq qozon leksikonida ham mavjud bo'lib "yungni savalamoq", تالقى talqi-tegirmon (terini oshlash uchun), **talqanmaq** "maydalamoq" shakllarida qo'llanuvchi leksema talšuq "qirg'iyya u och qolmasligi uchungina oz-ozdan berib turiladigan go'sht bo'lagi"ni ifoda etib, t tovushi ba'zan ت، ba'zan ط harfi qo'llanadi. Leksema "oz-oz yemoq" ma'nosini ifodalashi qozonchada **taşqatamaq**, chig'atoychada تاله تاله tala tala ekvivalenti bilan tarjima qilinib, "oz-ozdan, bo'lak-bo'laklab" پاره پاره pora pora) ma'nosini ifoda etgan.

Chig'atoycha يېغلاڭىچى ، يېغلاڭىچى - "yig'lamoq" (lesemasi umumturkiy va ozarbayjon ايلامق، يلامق aylamaq ekvivalenti qayd etilgan), leksemaning qisqargan shakli **yilamaq, ilamaq**, qozon tilida leksemaning muqobili kaz. pometasi orqali qayd etiluvchi **jiylamaq, qirg'iz**, boshqird tillarida (leksema muqobili oltoy tilida (алт. pometali) **iila, uyla, (mam. pometali)** tilida **iyla, mo'g'il tilida** (монг. pometali) **uy laxu**) "motam tutmoq" ma'nosida ham qo'llanadi: انكا يېغلاپىو كورماس بولدى ani yiylayu kozi kormas boldi – yig'lab-yig'lab, ko'zi ko'r bo'ldi (قصص - 187). Bu leksema chig'atoy leksikonida "kunning ma'lum qismida birovning o'limini eslab, yig'lash" ma'nosini ifoda etuvchi يېيى يېيى ning oltoy tilidagi muqobili iy - yig'i bo'lib, qo'shimchalar qo'shish orqali يېغلاۋچان، يېغلاۋچان yiylaq, yiylorvchan – "yig'loq, ko'ngilchan", يېغلاغان yiylayan – "yig'layotgan", يېغلاڭىچى يېغلاڭىچى yiylamayan – "yig'lamayotgan", جىلادى jilav – "marhumni maqtab yozilgan hamda ayol kishi yoki qiz bola tomonidan aytildigan she'rlar", جىلۇنېكىو jilov niguv – "motam belgisi sifatida nayzaga qora mato bog'lash", يېغلاتمق = جىلاتمۇق aylatmaq=jilatmaq, yiylatmaq – "yig'latmoq" kabi ma'nolarni o'zida aks ettiradi. Kup. pometasi bilan beriluvchi qirg'iz leksikonida tahlilga tortilgan leksema maqol tarkibida kelib, har ikki tilda mavjud ma'no gavdalangan: دوست جىلاتا ايتور دوشمان كولدора ايتور dost jilata aytur dusman kuldura aytur – "do'st yig'latib gapirar, dushman kuldirib" (maqol); Chig'atoycha يېغلاڭىچى يېغلاڭىچى yiylamaq – "yig'lamoq" oltoy tilida (алт. pometali) يېلاش يېلاشmaq, yilaş – "yig'lashmoq"

ekvivalenti orqali tarjimasi berilgan va bu leksema يغلاب قالمق *yiylab qolmoq* – “yig‘lab qolmoq”, اوқроқب يغلامق *yiylab almaq, yiylab* – “yig‘lab erishmoq (ko‘z yoshi orqali)”, فан *yiylamaq* – “baqirib (o‘kirib) yig‘lamoq”, يغلان کون *yilay qalyan kun* – “yig‘langan kun”, *yiylamaq* – “(qon), achchiq-achchiq yig‘lamoq” ma’nolarida qo’llanuvchi leksemadir. Chig’atoychada يغلامсинمق *yiylamsinmaq* shakli ham mavjud bo‘lib, “ko‘z yoshsiz yig‘lamoq, yig‘laganga solmoq” kabi ma’nolarni ifoda etadi, buni muallif leksema lug‘at maqolasida keltirgan quyidagi misolda ko‘rish mumkin:

– زاھد عشقин دисе که قیلغای فاش بیغلامسینور و کوزیکا کیلمас ياش *yiylamsinur va koziga kelmas yoš* [6].

Chig’atoycha لوی *luy* leksemasi uyg‘urcha (үүс. pometali) *luu*, oltoycha (алт. pometali) *ulu*, mo‘g‘ulcha (монг. pometali) *lu*, xitoycha (кум. pometali) *luñ* ekvivalenti bilan izohlangan. Muallif leksemani “ajdar, ajdar yili” ma’nolarini ifodalashini qayd etar ekan, “Kalkutcha lug‘at”da لوی نهنگ *luy nahay* birikmasi “timsoh” ma’nosini ifodalashini keltiradi [6].

“Katta, buyuk, ulug” ma’nolarini ifoda etuvchi chig’atoycha اولۇغ، ق *q* leksemasi muqobili “Kalkutta lug‘ati”da اولۇغ oluγ, umumturkiyda اولۇغ *ulu* tarzida izoh beriladi. E’tibor qaratilsa, bu leksema chig’atoychada oxirgi undosh tovush ba’zan *q*, ba’zan *g’* qo’llanilganini ko‘rsatadi. Leksema birikma holatida اولۇغ فان *uluγ qan* – “ulug‘ xon”, اولۇغ سونكاك *uluγ songak* – “katta suyak, zodagon” (اق سویاڭ 470 - umumturkiy tilda قىصىن = اولۇتاغ، اولۇزادە *ulutoγ, uluzoda* – “Qo‘qondagi tog‘ nomi”, اولۇجامع *ulu jome’* – “katta masjid” (Turkiyaning barcha shaharlaridagi asosiy masjidlar shunday ataladi), اولۇپ يول *ulu yol* – “katta yo‘l, asosiy ko‘cha”, اولۇدۇستىز *ulu dostimiz* – ulug‘ do’stimiz (Yevropa qirollarining diplomatik tildagi epiteti), اولىجه، اولىچى *olja, olija* – “eng ulug‘, eng katta” اولىجه لرک سوزنى طوتىيوب *ulujalarik sozini tutmayub* – “ulug‘larning buyruqlarini bajarmay”; اولۇلۇق ، اولۇقلىق، اولۇغلىق *uluylıq, uluqluq, uluylıq* – “ulug‘lik, kattalik, oqsoqollik”; chig’atoyp-qirg‘iz (lug‘atda ڈج. kup. pometasi orqali qayd etilgan, bir paytda har ikki tilda istemolda bo‘lgan leksemalarni ifodalaydi) leksikonida اولۇ اتالارى *ulu atalari* – “ulug‘lari”: اولۇ اتالارىنە سېور غال و صدقە قىلوب *ulu atalarina suyuryal va sadaqa qilub* – “ulug‘lariga muruvvat va mehr ko‘rsatib”, اولۇغچى *uluči* – “katta opa” kabi holatlarda qo’llanilgan. اولۇغلامق *uluylamaq* umumturkiyda اولۇغانلىق *ululamaq* – “kattalashtirmoq, ulug‘lamoq, hurmat qilmoq”, اولۇغانلىق *uluylanmaq* – “hurmat qildirmoq”, اولۇلۇنقا *ululanmaq, uluylanmaq* – “kattalashmoq, ko‘tarilmoq, havolanmoq; hurmatli bo‘lmoq”; اولۇغ بىلەك *uluy bilmak* – “ulug‘lamoq, hurmatlamoq”; اولۇسىنماقلەنمق *ulusinmaqlanmaq* – “havolanmoq, manmansiramoq, g‘ururlanmoq”; chig’atoychada اولۇغىمىق، اولۇغىمۇق *ulyamaq, ulyaymaq, ulyanmaq* kabi. Leksema “Kalkutta lug‘ati” (κ.с.λ.)da اولۇقىم *ulqimaq* – “ulg‘aymoq, katta bo‘lmoq”; فريدون اولوغايىپ ويردى *Faridun ulyayib verdi* – “Faridun ulg‘aygandi” tarzida qayd etilgan bo‘lsa, turkmanlarda اولۇققان *uluqqan* – “ulug‘langan, quadratli”, اولوغايىغە نچە *ulyayyanč* – “voyaga yetguncha”; اولوغاتىق، اولوغاتىقىق *ulyatmaq, ulyaytmaq* – “ulg‘aytirmoq”; “o’stirmoq”; اصطخر شهرىن اولوغاتى *Istaxr şahrin ulyatti* – “Istaxr shahrini o’stirdi” kabi ma’nolari yuzaga chiqadi. اوغلچى لارى اولوغاتىپ *oyılçalari ulyatib* – “o‘z farzandlariday o’stirdi”; muallif اولۇلمق *ululmaq* “buyuk shaxs bo‘lmoq, ko‘tarilmoq”, اولۇلۇمۇق *ululinmaq* – “yetakchi bo‘lmoq” ma’noga egaligi “Kalkutta lug‘ati”da keltirilganligini ta’kidlaydi [5].

Zoonimlar guruhiga kiruvchi “ayiq” leksemasi eski o‘zbek adabiy tilida آيىق، آيىقى، آيىقىق، آيىقىقى ayiq kabi fonetik variantlariga qo’llanilgan. Bu leksema uyg‘urchada *a:diq*, turkiy va oltoy leksikonida (myp. алт.) ayu kabi ekvivalenti orqali ixcham tarjima qilingan. Muallif shu

o'rinda zoonimlar tarkibiga kiruvchi leksemaning metaforik jihatdan fitonimlar tarkibida ham uchrashini keltiradi: محبت اوئى ayiq oti o'simlik, forscha مهر گياه mahorkiya yoki mahbit oti deb ataluvchi (davolovchi sifatida foydalaniladi). Tahlilga tortilgan leksema maqollar tarkibida ham qo'llanilgan: اچ ايوق اوينamas oč ayiq oynamas – "och qolgan ayiq o'ynamas" (maqol) [5].

Eski o'zbek adabiy tilida so'zlar yozilishida (orfografiyasida) bir xillik, qat'iylik bo'limganligi leksemalarning fonetik variantlarini yuzaga keltirigan. Masalan, lug'atda chig'atoycha deb berilgan (د، ط) بایتال baytal leksemasi tarkibidagi t undoshi te, to, dal harflari bilan erkin almashgan holda qo'llanilgan va buni muallif ham lug'at maqolada keltirib o'tgan. Tahlilga olingan بايتال leksemasi muqobili sifatida uyg'urchada bayčal keltiriladi. Ikki tildagi leksema farqi ikkinchi bo'g'in boshidagi tovushlarda bo'lib, t va ch tovushlari farqlidir. Bu uyg'urcha leksema "baytal" semasiga ega, biroq aynan qulunlamagan baytalga nisbatan qo'llanadi, muallif leksema lug'at maqolasida ot, ya'ni baytal to'g'risida yanada aniqroq ma'lumot keltirish maqsadida tahlil etilayotgan leksemaga qirg'iz tilidagi ekvivalentni keltiradi. Qirg'iz leksikonida otlarning yoshi hamda turi va jinsiga ko'ra ham alohida nomlar bilan atash mavjud. Masalan, قونه جون بایتال bidov baytal "qisir baytal", qunajun baytal "uch yoshli baytal", دونه جون بایتال dunajun baytal "to'rt yoshli baytal", بىشى bistay "yoshli baytal", بىبا biya "besh yoshdan katta baytal" [5].

Lug'atda boy, boyayi so'zi qozon-oltoy leksikonidagi (каз. алт.) boy, boy, qirg'iz tilida (kup.) boy aekvalenti bilan izohlangan. Tarjimasi "yaqinda, o'sha payt, hozirgina". Leksema boyayi بىبايغى ، بىباىغى كىشى "yaqindagi, avvalgi, o'sha, aytilgan", boyayi kişi gap ketayotgan, yaqin orada ko'rilgan odamni nazarda tutuvchi "haligi odam" ma'nolarini ifodalaydi [5].

"Tez, jadal, tez orada" ma'nolarini ifodalovchi بات، پات، بات bot, pot leksemasi -lig' qo'shimchasi yordamida botliy – "tezlik"ni hosil etgan. L.Budagov leksema izohida qoshg'archa (кашг.) پات قىصىت pot qarsot "yaqin vaqt ichida, tezda". ekvivalnetini keltiradi. Shu bilan birga leksemaning omonim varianti botmoq tatarchada بات bot – "qayiq" ni ifodalashini qayd etish asnosida leksemaga yanada oydinlik kiritadi [5].

L.Budagov chig'atoycha دېپرائىمك ، تېبرانمك ، تېرىنامك dipraymak, tibraymak, tibranmak, tibrilik leksema lug'at maqolasini shakllantirishda umumturkiy hamda ozarbayjon (myp.ad.) leksikonida birdek qo'llaniluvchi دېپرنمك ، تېرىنامك deprenmek ekvivalentini keltiradi va bu "joydan qo'zg'almoq, yo'lga tushmoq, yurmoq"; "qimirlamoq, tebranmoq, oyoqlarini urmoq" kabi ma'nolarni ifodalovchi leksema تېراو، تېرىنادى tibrav, tibradi, tiyrandi shaklida "sayohat" ma'nosida ham qo'llaniladi. Yuqoridagi ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda muallif tahlil etilayotgan leksemaning asos qismi haqida ham izlanishlarini leksema lug'at maqolasida aks ettiradi. Qirg'iz tilida dubur – "ot dupuri", تېرىنەك tiberek – "childirma" kabi ma'nolarni ifodalasa, umumturkiyda yasalish natijasida دېپرەنەمە ، دېپرەنەسە depranma, depraniş – "harakat, tebranish", yer depranmasi – "zilzila", تېرىنەمە tibranma shakllarida, ozarbayjon tilida دېپرنىجى tirpinma – "(joyingdan) qo'zg'alma, qimirlama!", depranmaz – "qo'zg'almas", depraniji – "harakatchan", oyır depraniji – "sudralgan" kabi ma'nolarni aks ettirishini qayd etadi. Bu esa leksema haqidagi ilmiy tasavvurni yanada aniqlashtiradi. L. Budagov leksema izohlashda ekvivalent usulidan foydalanibfina qolmay, lug'at maqola tarkibida "Yasalmalar" ostida izohni yanada kengroq ta'rif etadi.

**Yasalmalar:** تېبورمك ، دېپراتمك ، تېراتمك *tebdurmak, dipratmak, tibratmak* leksemasi chig'atoychada دېرәدурمك *tibradurmak*, umumturkiyda *deprandirmak* – “qimirlatmoq, تېرچىنمك ، تېرچىنек”， *yel tibratti* – “shamol silkitti, esdi”, tebratmoq, silkitmoq”， uyg'urchada يېل تېرىتى - تېراچىنماق، *tebračinmak, tepračinmak, tebrajlamaq, qirg'izchada* تېرالاماق، *terbatmaq* - “oyoqlar bilan dupurlatmoq, tepinmoq, silkitmoq (so'yilgan hayvon)”; “to'qnashmoq, biror narsaga kuch bilan urilmoq va yiqlimoq”， umumturkiyda *deprašmak, oltoychada* تابارىزىب، تابارماق اغاشقە: *tabarizib* - “yiqlimoq, biror narsaga urilmoq”: تابارزا اغاشتى ايندرتىندۇغە تابارزا تىندىدۇ ايندر *tabarza ayaşıtı indar tinduya tabarza tindudu indar* - “daraxtga urilsa, daraxtni ag'darar, tirikka urilsa, uni ag'darishar” [7] دېرەشتىرمك. *depraštirmak* - “birday harakatga keltirmoq” kabi holat va shakllarda kelishini qayd etar ekan, yuqorida aks etganidek V.Radlovdan ham parcha keltirib o'tadi [5].

Hozirgi o'zbek adabiy tilida “sho'ng'imcq, suvgal cho'milish uchun tushmoq” ma'nosi eski o'zbek adabiy tili davrida چۈمەنامق (y), چۈمەنامق (y), *čumnamaq, čummaq* leksemasi orqali anglashilgan. Muallif lug'atda chig'atoycha leksema izohini tobolcha (*тоб.*) چۈمۈلەنامق (*алт.*) *čom, qirg'izcha (куп.)* شومو (*o*) *šommu*, ozarbayjoncha (*ад.*) *čümmek* ekvivalentlarini ketirish asnosida amalga oshiradi. Bu leksema asosida O'rta Osiyo xalqlari tilida turli so'zlar hosil qilingan. Massalan, qozon leksikonida چومۇچان *čomučan* - “sho'ng'uvchan”; چومورمۇق *čomurmaq*, umumturkiyda چەندىرمك *čomdurmak* - “cho'miltirmoq, sho'mg'itmoq”, qirg'izchada شومولىمك *šomulmaq* - “cho'milmoq, yuvinmoq” (صوغە suvda, ya'ni suvgal tushgan holda) kabi [5].

Lug'atshunos chig'atoycha *itmak* so'zini umumturk hamda ozarbayjonchada (*myp.ad.*) *yitmak* ekvilenti bilan tarjima qilgan: “yo'qolmoq, yashirinmoq, halok bo'lmoq”. Leksema *iyt* shaklida “yo'qol, ko'rınma!” buyruq maylidagi harakatni ifoda etgan bo'lsa, يېڭىن يېڭىن yetik, yetuk, iytuk, *qirg'izchada* جېڭىن *jetik, chig'atoychada* *italik* - “yo'qotish, yo'qolish”, *itakdik* - “buyum yo'qolgach, qadrli” ضایع اولنمش يعنی بربى قىمت نسنه (*zoja ulanmas ya'ni biri qiymat nasina* дж.сл.). *itardin* - “yo'qolgani uchun”, *itgan* - “yo'qolgan”; يېڭىن يېڭىن *itarmaq, iturmaq, umumturk hamda ozrbayjon leksikonida* *itarmaq, iturmaq* - “yo'qotmoq”; uyg'urchada اپتىرىپ ساقلاپ *itirib saqlab* - “urf-odatlarni hurmat qilish, ularga amal qilish” (balki yo'qolganlarni saqlash, ya'ni yo'qolib borayotgan qadimgi urf-odatlarni saqlash ma'nosidan kelib chiqqandir) ma'nolarini o'zida aks ettirgan [5].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, lug'atshunoslardan tomonidan keng qamrovli qo'llanib kelangan ekvivalent yo'li bilan izohlash leksemaning tushunilishini qulaylashtiradi. L.Budagov tomonidan leksema lug'at maqolasini shakllantirishda qo'llanilgan bu usul samarali bo'lib, har bir leksemaning boshqa bir tildagi ma'nosini keltirishda xalq merosiga oid illyustrativ materiallarning ham keltirishi leksemaning qay vaziyat va holatlarda qo'llanilishi hamda salbiy-ijobiy attenkalarni ifodalashga ko'makdosh bo'la oladi. Bu usuldan foydalanish lug'atshunosning O'rta Osiyo xalqlari tili va adabiyoti haqida chuqur bilimga egaligiga yorqin misoldir.

### Адабиётлар/Литература/References:

- Alekseeva I. S. Tarjimashunoslikka kirish. M.: “Akademiya” nashriyot markazi. 2004. 352 b.
- Axmanova O. S. Tilshunoslik terminlari lug'ati. Moskva: Sovet Entsiklopediyasi. 1966. 608 b.

3. Barxudarov L. S. Til va tarjima: Tarjimaning umumiylari va xususiy nazariyasi masalalari. M .: Stajyor. munosabatlar. 1975. 240 b.
4. Breus E. V. Ingliz tilidan rus tiliga tarjima kursi. Qo'llanma. M .: Valent. 2007. 320 b.
5. Budagov, L. Z. Sravnitel'nyj slovar' turecko-tatarskih narechij. – Sankt-Peterburg. Vol I. 1869. 813 b.
6. Budagov, L. Z. Sravnitel'nyj slovar' turecko-tatarskih narechij. – Sankt-Peterburg. Vol I. 1869. 418 b.
7. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. –T.: Mumtoz So'z, 2010. -B. 3. Qarang: Zveginsev V. Semasiologiya. –M.: Izd-vo Moskovskogo universiteta, 1957; Pokrovskiy M. Izbrannyye raboty po yazykoznaniiyu. –M.: Izd-vo akademiya nauk SSSR, 1959.
8. Mutallibov S. Morofologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. –T.: Fan, 1959.
9. Radlov'V.V., Obrazsi narodnoy leterteraturi tyurkskih' plemen', s' nemetskim' perevodom', chast I. podnarechiya Altaya, izd. v' S. Peterb. 1866.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ S/6 (3) – 2023***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).